

**MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “AL- UNMUZAJ” ASARI
ISM BOBIDA IKKILIK SON KATEGORIYASINING
YORITILISHI.**

TOSHPULOTOVA NAFISA NEMAT QIZI

Samarqand davlat Chet tillar instituti Yaqin sharq tillari kafedrasi magistranti

E-mail: Ssama6906@gmail.com

Anotatsiya

Maqolada arab tili grammatikasida yuksak maqomga ega bo‘lgan alloma Mahmud Zamaxshariyning “Al- Unmuzaj” asarida ikkilik son kategoriyasi ismga oid so‘zlar bilan ishlatalishi xususida batafsil bayon qilingan.

Tayanch iboralar: *sarf, nahv, ism, -ani, -yni,*

Annotation

This article provides an in-depth account of the use of binary numeral system with noun in the work of “Al Unmuzaj” by Makhmud Zamakhshari, who is a prominent scholastic figure in arabic grammar.

Basic phrases: morphology, syntax, noun, -ani, -yni.

Аннотация

В этой статье анализируется использование категории двоичного числа существительными в “Аль-Унмузадж” Махмуда Замахшари, ученого с высоким статусом в арабской грамматике.

Ключевые слова: морфология, синтаксис, имя существительное, -ани, -йна.

Bugun dunyoga mashxur ochiq osmon ostidagi muzey bo‘lmish Xorazmda XI asrda tug‘ilgan Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy arab lingvistikasida o‘ziga munosib o‘rin egalladi. U nafaqat, arab balki, tabiiy va ijtimoiy gumanitar fanlarda ham o‘z salohiyatini namoyon eta olgan buyuk alloma edi. Zamaxshariy, taqvodor oilaning farzandi bo‘lgan. Alloma bolalikdan zukko, ilm- fanning turli sohalarida ishtiyogiqo baland bo‘lgan. Ayniqsa, arab tiliga muhabbat o‘zgacha edi, bu tilda asarlarni o‘rganib qiyosiy tahlil etar edi. Eng yoqtirgan mashg‘uloti esa arab xattotligi bo‘lgan. Diniy bilim sohasida ham o‘z zamonasining yetuk olimlaridan edi. Shu sababli ham “Jarulloh”, “Ustoz ud dunyo” edi. Baxtsiz hodisa tufayli jismoniy nogiron bo‘lib qoladi, bu uning ma’naviy salomatligiga ta’sir etmadi. Akademik Krachkovskiy “Yog‘och oyoqda bo‘lishiga qaramasdan Az- Zamaxshariy harakatchanligi bilan ajralib trardi”- deya ta’riflaydi.[1.28]. U “Ustoz ul arab val ajam” edi. Uning arab tilida yaratgan asarlari nafaqat arab dunyosi, balki, ajamda ham ahamiyatga molik asar bo‘ldi. Shunday asarlardan biri arab tilini oson o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun yozgan muxtasar asari “Al- Unmuzaj fin nahv” bo‘lib, u 3 bobdan iborat. Ism, Fe’l, Harf boblari va har bir bob fasllarga ajratiladi, bu bilan arab nahvi dunyosiga kata bir yangilik olib keldi. Zamondoshlarining asarlardan farqli o‘laroq arab grammatikasini boblarga ajratgan edi. Bu asarning har bir bo‘limda ham sintaksis ham morfologiya masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada biz Ism so‘z turkumiga kiruvchi ikkilik son kategoriyalar xususidagi fikrlarni ko‘rib chiqamiz. Arab tilida ism so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar uch grammatik son kategoriyasiga bo‘linadi. Birlik, ikkilik va ko‘plik. Zamaxshariy “Al- Unmuzaj” asarida ikkilik son kategoriyasini quyidagicha ta’riflaydi:

و هو ما لحقت آخره ألف و ياء مفتوح ما قبلها لمعنى الثنوية و نون مكسورة عوضا عن الحركة و التنوين. و يسقط النون [3.24] نحو: غلاما الحسان و ثوبا ابنك عند الإضافة: نحو: غلاما زيد، و الألف إذا لاقاهما سakan،

Ma’nosi: Ikkilik bu so‘zning oxiri harakat yoki tanvinning o‘rniga ikkilik ma‘nosini beruvchi kasrali nun va nundan oldingisi alif va yoy bo‘lganlaridir. Va izofa bo‘lib kelganda ushbu nun tushadi. Misol: Zaydning quli. Va agar sukunli bo‘lsa: Hasanning ikki g‘ulomi, va O‘g‘lingni ikki kiyimi. Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘z oxiridagi tanvin domma o‘rniga ان- ani qo‘srimchasi qo‘shilishi bilan, jar(qaratqich kelishigi) va nasb(tushum kelishigi) holatlarida bir xil yni qo‘srimchasi qo‘shilishi bilan sodir bo‘ladi. [2.37] Izofa bo‘lib kelganda umumiyy qoida yani ن nun ning tushirilishi bilan bo‘ladi. [2.61]

و ما في آخره ألف مقصورة ان كان ثلاثين رد إلى أصله عند الثنوية، نحو: عنوان و رحجان [3.25]

Ma’nosi: va so‘z oxiri alif maqsura bilan tugagan uch o‘zakli so‘z bo‘lsa ikkilik shaklda asli holatiga qaytadi. Misol: ikki tayoq, ikki ruh. ي qo‘srimchasi bilan tugagan so‘zlardan yani qo‘srimchasi qo‘sish bilan. Ayrim ikki undoshli o‘zakdan iborat so‘zlar – وان vani qo‘srimchasi qo‘sish orqali hosil qilinadi.[2.38] arab

[3.25] و ان كان آخر الممدود ألف الثنوية، كحراء، قلت: حمراء، فـ

Oxiri dommali alif bo‘lgan so‘zning ikkiligi quyidagicha ayt: misol: qizil, ikki qizil. ا harflari bilan tugagan so‘zlardan و belgisi o‘rniga وان qo‘srimchasini qo‘sish bilan[2.37] hosil qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, arab tilida uch grammatik son kategoriysi mavjud. O‘zbek tili grammatikasidan farqli o‘laroq arab tilida ikkilik son kategoriysi mavjud va u ism va fe‘l so‘z turkumlarida qo‘llaniladi. Mahmud Zamaxshariyning “Al Unmuzaj fi-n-nahv” ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan mo‘tabar asar deya ta‘rif etilgan. Asar o‘zining yozilish uslubi bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, asari da ikkilik son kategoriyasining erob holatini ham keltirib o‘tadi. –ani, -yni, alifning yoyga o‘zgarishi kabilar singarilar, yani asarda ham morfologik ham sintaktik jihatlar tahlil etilgan. Ushbu maqolada Ism so‘z turkumida ikkilik son kategoriyasiga oid fikrlarning ma’lum bir qismini oldik xolos.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abu- l- Qosim Mahmud Zamaxshariy Nozik iboralar.-T: Kamalak, 1997, b28
2. Ibrohimov N, Yusupov M. Arab tili grammatikasi I jild.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopedoyasi Dalat ilmiy nashriyoti, 1997, b37,38,67
3. Mahmud Az-Zamaxshariy. Al- Unmuzaj.-Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2001 b24,25
4. Nosirova M. O‘rta asr arab nahvidan namunalar(Mahmud Zamaxshariyning “AL- Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi asosida)- T: ToshDShI nashriyoti, 2004, b16,18
5. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi(arab tilshunosligi) ToshDShI- T: Semrug‘- media,2011, b 22